

IV SHO‘BA: INNOVATSION TADQIQOT YONDASHUVLARI, XALQARO HAMKORLIK VA SIVILIZATSIYA MEROSINI TARG‘IB QILISH.

“SADOI FARG‘ONA” GAZETASI VA QO‘QON SHAHRIDA MILLIY DAVRIY MATBUOTNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

Xamraqulov Serobjon Soliyevich
Qo‘qon davlat universiteti
Tarix kafedrası katta o‘qituvchisi (PhD)

ANNOTATSIYA

Maqolada Turkistonda matbuotning shakllanishi va rivojlanishi, shuningdek, Turkistonning eng yirik shaharlaridan biri bo‘lgan Qo‘qon shahrida matbuotning shakllanishi va uning rivojlanishi masalalari yoritib o‘tilgan. Bu davrda Qo‘qon shahrida chop etilgan gazetalar va jurnallar haqida ma‘lumotlar berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Davriy matbuot, jadidlar, Obidjon Mahmudov, Qo‘qon shahri, gazezalar, junnallar.

АННОТАЦИЯ

В статье освещаются вопросы формирования и развития печати в Туркестане, а также становления и развития периодической печати в городе Коканд — одном из крупнейших городов Туркестана. Кроме того, приводятся сведения о газетах и журналах, издававшихся в Коканде в данный период.

Ключевые слова: периодическая печать, джади́ды, Обиджон Махмудов, город Коканд, газеты, журналы.

ANNOTATION

The article highlights the formation and development of the press in Turkestan, as well as the emergence and development of the press in Kokand, one of the largest cities of Turkestan. It also provides information about the newspapers and journals published in Kokand during this period.

Keywords: periodical press, Jadids, Obidjon Mahmudov, Kokand city, newspapers, journals.

Rossiya imperiyasi tomonidan O‘rat Osiyo xonliklari bosib olingach, bu erda o‘zining boshqaruv usulini joriy etdi. Turkistondagi rus hukumati o‘z qaror va buyruqlarini xalq orasiga etkazdirish maqsadida bu o‘lkada gazeta chop eta boshladi. Mana shunday dastlabki gazeta 1870 yilda chop etilgan “Turkistanskije vedomosti” edi[10:8-b]. Ushbu gazeta dastlab hukumatning qaror va buyruqlarini e‘lon qilish bilan shug‘ullangan bo‘lsada, u o‘lkada matbuotning rivojlanishiga asos bo‘ldi. Dastlab gazetalar general gubernatorlik markazi Toshkentda chop etilgan bo‘lsa, keyinchalik viloyatlarda va o‘lkaning yirik shaharlarida ham gazetalar chop etila boshlandi. Bu o‘rinda albatta jadidlar va o‘lkadagi mahalliy sarmoyadorlar xizmatini ta’kidlab o‘tish joiz. Ularning sa’y – harakatlari evaziga 1906 yilda milliy tilda “Taraqqiy” gazetasi chop etila boshlandi[5]. Bu omil o‘lkada milliy tildagi gazetalarni chop etilishida muhim rol o‘ynadi. 1976 yilda Qo‘qon xonligi tugatilib, uning o‘rnida Farg‘ona viloyati tashkil etilgach, viloyat markazi sifatida Qo‘qon emas balki Skobelev (Yangi Marg‘ilon) belgilandi. Ammo Qo‘qon shahri xonlik markazi sifatida o‘z salohiyatini yo‘qotmagan edi. Bu erdagi sarmoyadorlarning rus burjuaziyasi bilan hamkorligi hududda yangi madaniyatning ham shakllanishiga olib keldi. Bular qatoriga davriy matbuotni ham qo‘shib o‘tish mumkin. Qo‘qonda chop etilgan mana shunday nashrlarning to‘ng‘ichi bu “Sadoi Farg‘ona” gazetasi edi[3:44-b]. O‘z davrining taraqqiyparvari va sarmoyadorlaridan bo‘lgan Obidjon Mahmudov muassisligida chop etilgan ushbu gazetaning musahhihi (korrektori) Ashurali Zohiriy bo‘lgan. Usmon Nuriy tarjimon bo‘lib ishlagan. Bu gazeta 1914 – yil 3 – apreldan – 1915 – yil may oyigacha chop etilgan bo‘lib, jami 122 ta soni chiqqan[6:159-b]. Gazetaning 1914 – yil aprel, payshanba kuni chiqqan sonida “Haftada uch marta chiqadurg‘on ilmiy, fanniy, siyosiy turkcha gazetadur” deb ma’lumot berib o‘tilgan[2]. “Sadoi Farg‘ona” ning maqsadi haqida uning noshiri va muharriri Obidjon Mahmudov gazetaning 1-sonida bosilgan “Maqsad va maslak” maqolasida shunday yozadi: “Gazetani nashr etishdan maqsadimiz tijorat emas, balki xalqimizga qo‘limizdan kelgan qadar xizmat etmoqdir. Xalqimizda matbuot va jaridai milliyaga kundan – kun shavq va rag‘bat o‘zgardi. Gazeta moddiy jihatdan

ta‘minlangan”[2]. “Sadoi Farg‘ona” gazetasining 1914 yil 17 iyuldan chiqqan “Ferganskoe exo” nomli ruscha varianti ham bo‘lgan[9:40-b]. Gazeta A- 2 formatda, to‘rt sahifada Qo‘qon shahar Haydarbek mahallasidagi Obidjon Mahmudovning shaxsiy bosmaxonasida 500 – 600 nusxada chop etilar edi.

Gazetaning obuna narxi Qo‘qon shahri va Rossiya shaharlari aholisi uchun 1 yilga 5 so‘m, 6 oyga 3 so‘m, 3 oyga 2 so‘m, 1 oyga 60 tiyin bo‘lgan. Xorijiy mamlakat fuqarolari uchun esa narx 2 barobar qimmat bo‘lgan, ya‘ni: 1 yilga 12 so‘m, 6 oyga 7 so‘m, 3 oyga 4 so‘m, 1 oyga bir yarim so‘m bo‘lgan[6:159-b].

Ziyo Said gazetaning muhbirlari kam ekanligi xaqida ma‘lumot berib o‘tgan bo‘lsada, ammo gazeta sahifalariga nazar tashlasak, unda o‘z davrining mashhur ziyolilari H.H. Niyoziy, Cho‘lpon, Tavallo (To‘lagan Ho‘jamiyrov), Hamid Said, Saidahmad Vasliy, Ibrohim Davron, Mulla Abdullabek Musobekxoji o‘g‘li, Shokirali Muxtorov o‘z maqola va materiallari bilan ishtirok etganligini ko‘rib o‘tishimiz mumkin.

Ushbu gazeta aholini ma‘naviyatini yuksaltirishda salmoqli o‘rin egalladi. Xususan gazetaning faol hodimi bo‘lgan Ashurali Zohiriy gazetaning birinchi sonida “So‘z boshi” nomli maqolasida “Gazeta har bir millatning tilidur, gazetasiz millat tilsizdur. Zero, tili va adabiyoti yo‘q millat millat emasdur” deb, gazeta va adabiyot har bir millatni millat sifatida ko‘rsatuvchi oyna ekanligini birinchilardan bo‘lib takidlab o‘tgan edi. U o‘z fikrini davom ettirib, matbuotning jamiyat hayotidagi o‘rni xaqida to‘xtalib “Matbuot butun dunyodagi madaniy millatlarning hayot yo‘llari, olamdagi darajalari va insoniyat taraqqiyotining cho‘qqisi uchun kerak bo‘lgan sa‘y-harakatlar to‘g‘risida maslahatlashmoq va kengashmoq uchun zarur bir vositadir” deb takidlagan edi [2].

Nashrning o‘z faoliyatini to‘xtatishiga sabab sifatida moddiy qiyinchiliklar va Obidjon Mahmudovning publitsistik tajribasi kamligi ko‘rsatilgan bo‘lsada, “bu gazeta orqasidan bir necha yangi muxbirlar va tubjoy xalqdan murattiblar yetishib chiqdi” deb qayd etilgan. Bu omil o‘lkada matbuotning rivojlanishida alohida o‘rin tutdi.

“Sadoi Farg‘ona” gazetasini nashr etishdagi tajribasidan so‘ng Obidjon Mahmudov 1917 yil 2 apreldan boshlab “Tirik so‘z” nomli yana bir gazetani nashr eta boshlaydi[4:24-b]. Gazeta mushtariylariga “haftada 3 marta chiqadur gon adabiy, iqtisodiy, taraqqiy gazetadur” deb tanishtirilgan. “Pechatnoe delo” matbaasida chop etilgan. Gazetaning nima maqsadda tashkil qilingani xaqida muharriri: “...ahvoli zamonag‘a qarab ba‘zi puxta joylarda eshitkan va bilgan so‘zlarni gazet orqalik bildirib turmoqni zarur fahmlab, ya’ni “Tirik so‘z” gazetasini chiqarmoqg‘a majbur bo‘ldim” deb aytib o‘tgan[6:157-b]. Ammo bu nashr ham ommalasha olmay o‘z faoliyatini to‘xtatadi. Hozirgi kunda ushbu gazetaning birgina soni saqlanib qolgan.

1917 yil sentyabr oyidan boshlab Qo‘qonda “G‘ayrat” kutubxonasi muassisligida “El bayrog‘i” gazetasi chop etila boshlandi. Nashr dastlab Qo‘qondagi mahalliy savdo – sanoat egalarining fikr tarqatuvchisi bo‘lib chiqqan bo‘lsada, noyabr oyida Qo‘qonda “Turkiston Muxtoriyati” e‘lon qilingach, gazeta ushbu hukumatning nashri sifatida faoliyat yurita boshladi[3:52-b].

Muxtoriyat nashriga aylangach, uning sahifalarida rus istibdodining vatanimizda yuritayotgan mustamlakachilik siyosati, uning bu o‘lkadagi bir yoqlama paxta etishtirish va uni tashib ketish siyosatlari tanqid ostiga olinib, jumladan, “Turkistonda etishgan xom–ashyo bundan so‘ng chetga chiqarilmaydi. Turkistonda paxta o‘rniga habobot (g‘alla) ekilur” deb o‘z fikrini ochiq bayon eta olgan.

Gazeta muharrirlari Po‘lat Soliev (1882- 1938) va Ashurali Zohiriy edi. Gazetada Abdulla Begiy, Nusharovon Yovushev, Ismoil Obidiy, Yunusjon Og‘aliqov va bir nechta ziyolilar o‘z maqolalari bilan ishtirok etganlar. Gazeta haftada ikki marta, 800 – 1000 ta nushada mix bosmada Turkiston Muvaqqat hukumati bosmaxonasida chop etilar edi. 1918 yil fevralda Turkiston Muxtoriyati tugatilgach, gazeta ham o‘z faoliyatini to‘xtatadi. Gazetaning bor – yo‘g‘i 20 soni chop etilgan[4:24-b].

Abdulhamid Cho‘lponning ma’lumoticha 1917 yilda Qo‘qonda “Ravnaqul – islom” nomli gazeta ham chop etilgan. Ushbu nashr “Xaloyiq” jamiyati muassisligida chop etilgan. Nurmuhammad o‘g‘li Toshmuhammad muharrir sifatida faoliyat yuritgan. Davr muarrixlari bu gazeta xaqida: “...ushbu gazeta o‘z davrida “demokrat tarafdorlarining gazetasi” sifatida nom qozonganligini etirof etganlar. Yani bu gazeta o‘zlarini demokratlar deb atovchi qatlam tomonidan chop etilganligini qayd etib o‘tadilar.

Ammo bir – ikki oy faoliyat yuritgandan so‘ng moddiy qiyinchiliklar sababli o‘z faoliyatini to‘xtatadi[1:30-b]. Abdulla Avloniy 1917 yilda Qo‘qonda Axmad Devishev mutasaddiligida “Xalq g‘ayrati” nomli gazeta ham chop etilganligi xaqida ma’lumot berib o‘tgan. Ammo u ham bir necha son chiqqach o‘z faoliyatini to‘xtatgan[1:34-b].

Turkistonda gazetalar faoliyati yo‘lga qo‘yilgach, asta – sekinlik bilan jurnallar ham chop etila boshlandi. Bular sirasiga “Oyina”, “Al- Izoh”, “Al –Islah” larni misol sifatida keltirib o‘tish mumkin. Qo‘qonda ham bu davrda bir nechta jurnallar chop etilgan. Dastlabki mana shunday jurnallardan biri bu “Kengash” dir. U 1917 yil mart oyi oxirlaridan boshlab chop etila boshlagan[3:57-b]. Ikki haftada bir marta nashr etilgan. Muharriri Hamza Hakimzoda Niyoziy bo‘lgan. Jurnal Qo‘qon muallimlari tomonidan chiqarilgan. Jurnalning ikkinchi sonida bosilgan maqola boy va ulamolarga ma’qul tushmaganligi sababli Hamza jurnalдан chetlashtiriladi. Uning o‘rniga Rahimjon xoji Tursunmuhammad o‘g‘li muharrirlik qiladi. Jurnal 8 bet hajmda, toshbosmada 400 dona bosilar edi. Oltinchi sonidan so‘ng o‘z faoliyatini to‘xtatadi[8:391-b]. Bugungi kunda jurnalning uchta soni saqlanib qolgan.

Qo‘qonda chop etilgan navbatdagi jurnal bu “Yurt” bo‘lib uning birinchi soni 1917 yilning 1 iyunidan chop etila boshlagan[17]. Ushbu jurnal o‘z davrining salmoqli jurnallaridan biri hisoblangan. Uning shiori “YAshasin muhtoriyatli xalq jumhuriyati!”. Jurnal ikki qismdan iborat bo‘lgan. Uning birinchi qismida adabiyot, siyosat, ijtimoiy, tarixiy, huquqiy, ta’lim- tarbiya, oila masalalariga oid maqolalar o‘rin olgan bo‘lsa uning ikkinchi qismida qishloqlar va qishloqlar aholisining

ijtimoiy muammo va masalalarini yorituvchi maqolalar o‘rin olgan. Bu holat jurnalning oddiy xalq orasida ommalashishiga sabab bo‘lgan. Ashurali Zohiriy jurnalning muharriri va noshiri bo‘lib faoliyat yuritgan. Jurnalda o‘z davrining ziyolilaridan Axmad Zaki Validiy, Axmad Sardor, SHokirqul Muxtoriy, Subhiy va boshqalar o‘z maqolalari bilan ishtirok etganlar. Jurnal 16 betlik bo‘lib, mix bosmada ming nusxa atrofida chop etilgan. Ziyo Saidning takidicha jurnal texnik jihatdan o‘z davrining eng ko‘rkam jurnallaridan biri bo‘lgan.

“Kengash” jurnali o‘z faoliyatini to‘xtatgandan so‘ng uning o‘rniga 1917 yil avgust oylarida “Hurriyat” nomli jurnal nashr etila boshlandi[3:58-b]. Ziyo Said Mahmudxo‘ja Rizoiy ushbu jurnalning bosh muharriri sifatida faoliyat yuritgan deb malumot bersa, tadqiqotchi B. Do‘stqoraev “Hurriyat” jurnali 1917 yilning 7 aprelidan chiqa boshlagani, uning dastlabki ikki soniga Hamza Hakimzoda Niyoziy muharrirlik qilib, noshiri Hoji Rahimjon SHodi bo‘lganligi xaqida ma‘lumot beradi[7:62-b]. Ammo jurnal to‘rt soni chiqqandan so‘ng o‘z faoliyatini to‘xtatgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa sifatida shuni aytish mumkinki Qo‘qon shahri ham matbuot shakllangan hududlardan biri bo‘lgan va bu erda chop etilgan gazeta va jurnallar ham o‘lka xalqlari ijtimoiy – siyosiy, ma‘naviy hayotini yuksaltirishda o‘zining munosib hissasini qo‘shgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

- 1.A.Avloniy.Burungi o‘zbek vaqtli matbuoti tarixi. “Milliy uyg‘onish”.T., “ToshDU” nashryoti. 1993 y. B.30 – 36.
2. Ashurali Zohiriy. So‘z boshi // Sadoi Farg‘ona. 1914. №1.
- 3.Ziyo Said.Tanlangan asarlar. 1974 y.
- 4.Mingnarov A. Ijtimoiy - siyosiy jarayonlarning milliy matbuotda yoritilishi. T. “Istiqlol nuri”. 2013 y.
- 5.Pidaev T.R,Do‘stqoraev B, “Taraqqiy gazetasi”. “Xalq so‘zi”.1993 y 11 iyun.
- 6.Turkiston matbuoti tarixi. (1870 – 1917). Tuzuvchi N. Abduazimova. T.: “Akademiya”, 2000 y.

- 7.Farg‘ona jurnalistikasi. / Tuzuvchi va mas‘ul muharrir M.Obidov. – T.: “Sharq”, 2009 y.
- 8.Hamza.To‘la asarlar to‘plami.5 tom.T.: Fan, 1988 y,
- 9.Cho‘lpon. Turkistonda matbuot. “Jamiyat va boshqaruv”. 1998 y. № 2.
- 10.Shadmanova S.Turkiston tarixi – matbuot ko‘zgusida (1870 – 1917 yillar). T.: “Yangi nashr”.2012 y.

ЁШЛАР ДУНЁ ҚАРАШИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ТАРИХИЙ БИЛИМЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ

Холматов Мухсин Мўйдинович.

ҚўқонДУ “Тарих” кафедраси катта ўқитувчиси.

Тел: +99890-507-89-58 E-mail: xolmatovm1966@gmail.com,

Ш. Тохиров, ҚДУ талабаси.

Аннотация

Мақолада ёшлар дунё қарашилини шакллантиришнинг муҳим омилларидан бири бўлган тарихий ҳолислик, ёшларимизни тарихий қадриятларимиз асосида тарбиялаш, уларни турли таъсирлардан сақлаб қолиш масалалари ёритиб берилган. Шунингдек, тарих фани олдида ҳам бир қатор аниқлик талаб этаётган муаммоларга эътибор қаратилган.

Калит сўзлар: тарихий ҳолислик, демократик ислохотлар, тарихий қадрият, ёд ғоялар, тарих институти.

Дунё шиддат билан ўзгариб, барқарорлик ва халқларнинг мустақкам ривожланишига раҳна соладиган турли янги таҳдид ва хавфлар пайдо бўлаётган бугунги кунда маънавият ва маърифатга, ахлоқий тарбия, ёшларнинг билим олиш, камолга етишга интилишига эътибор қаратиш ҳар қачонгидан ҳам муҳимдир[1.27-б.]. Ҳозирги тез ўзгариб бораётган дунёда ёшларимизни турли таъсирлардан сақлаб қолиш учун биз аввало ёшларимизни тарихий қадриятларимиз асосида тарбиялашимиз шарт.